


3	Aktiv tillar	C	fe'lning ma'nosi va shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar eganing bir xil shakllanishi bilan xarakterlanadi. Bu tillarning fe'li, odatda, ega bilan moslashadi. Bu tillar tipida gaplar ega (harakat subyekti) bilan to'ldiruvchi (harakat obyektini) bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga asoslanadi. Ularda o'timli va o'timsiz fe'llar, ot so'z turkumining bosh va tushum kelishiklari, vositasiz va vositali to'ldiruvchilar ajratiladi. Fe'llarning tushinishida turli obyektiv va subyektiv affikslardan foydalaniladi. Bunday tillarga hind-yevropa, semit, dravidiy, fin, turkiy, mo'g'ul, tay, yapon, koreys va xitoy tillari kiradi.
4	Tillarning guruhli tipi	D	subyektning faollik va nafaollik kategoriyasi grammatik jihatdan istifoda etiladi. Ot so'z turkumi aktiv/inaktiv kelishiklarni farqlaydi, fe'llarning bir qancha aktiv va inaktiv qo'shimchalari bor. To'ldiruvchi esa yaqin va uzoq tushunchalari bilan birga qo'llaniladi. Bu tipga na-dene, siu, guarani, elam tillari kiradi.
Javob: 1-..., 2-..., 3-..., 4-...			

5-amaliy ish. Test. O'zbek va rus tillari sintaktik qurilish jihattan qaysi tillar guruhiga kiradi?


..... 8

- a) ergotiv
b) guruhli
c) nominativ
d) aktiv

6-amaliy ish. Quyidagi dunyo tillarini o'z toifasiga ajrating.



7-amaliy ish. Klaster kataklariga nominativ tillarni joylashtiring.



..... 9


Sintaktik tipologiya	
Nominativ tuzilish	
Ergotiv tillar	
Aktiv tillar	
Aktiv tuzilish	
Guruhli tip	

2-amaliy ish. BBB metodi yordamida quyidagi savolga javob bering.

Tillarning sintaktik tasnifi deganda nimani tushunasiz?

Bilaman	Bilib oldim	Bilmoqchiman

3-amaliy ish. Berilgan tillarni sintaktik guruhlariga ajratib mos qutilarga soling.



4-amaliy ish. Moslashtiring. Quyidagi ma'lumotlarni o'z orniga qo'yib chiqing va xotirangizni tekshiring.

1	Gaplarning nominativ tuzilishi	A	gaplar subyekt bilan obyekt ziddiyatiga asoslanmaydi. Ular agentiv (harakatni qo'zg'atuvchi) va faktitiv (harakatni boshqaruvchi)lar asosida quriladi. Bu tipdagi ikki xil kelishik farqlanadi. Vositali to'ldiruvchisi bor gapda ega – ergotiv, to'ldiruvchi – absolyut kelishikda bo'ladi. To'ldiruvchisi yo'q gapda ega absolyut kelishikda keladi. O'timsiz harakatda ega o'timli harakatning obyekt shakli (absolyut kelishik) bilan mos tushadi. Ergotiv kelishik shaklidagi ot so'z turkumi o'timli harakatning subyektidan tashqari bilvosita obyekt (ko'pincha harakatning vositasi)ni ham anglatadi. Bu tillarga bask, abxaz-adige, nax-dog'iston, ko'plab papuan, avstraliya, chukot-kamchatka, eskimos-aleut va boshqa hind tillari kiradi.
2	Ergotiv tillar tipi	B	gapning strukturasi barcha gap bo'laklarida ism guruhlarining belgisiga tayaniladi. Bu tillarda ot so'z turkumi maxsus affiksalar bilan belgilangan guruhlariga ajratiladi. Ular suaxili, zulu, kongo kabi tillardir.

1-DARS

TILLARINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI



1-amaliy ish. Ma'ruza matnidan foydalanib, quyidagi tushunchalarga izoh bering.

ishlarni bajarishdan avval mavzuga doir nazariy bilimlar yodga olinishi lozim. Shu maqsadda o'quv qo'llanmada har bir amaliy mashg'ulot dastlab o'tilgan mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar tahlilini o'tkazishga qaratilgan topshiriq bilan boshlanadi. O'quv qo'llanmada nazariy mavzu bo'yicha turli hajmdagi rang-barang amaliy topshiriqlar berildi. Jumladan, mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda o'quv qo'llanmada til birliklarini lingvistik tahlil qilish, faktik materiallarni qiyoslash asosida umumlashma xulosalar chiqarish, turli jadvallar bilan ishlash, matnning lingvistik tahlil qilish, ilmiy manbalar ustida ishlash va ularga munosabat bildirish, ilmiy sharhlar yozish kabi turli topshiriqlar ishlab chiqildi. O'qituvchi ulardan ma'qulini (talabalarning bilim darajasi, belgilangan vaqt kabilar asosida) ixtiyoriy tanlab, mashg'ulotni tashkil etishi mumkin bo'ladi. O'quv qo'llanmadan talabalarga uyga vazifa sifatida beriladigan amaliy topshiriqlar ham o'rin oldi. Bunday topshiriqlar ham talabalarni mustaqil tadqiq o'tkazish hamda umumlashma xulosalar chiqarishga undaydi.

O'quv qo'llanma shu fanning "Sintaksis" bo'limini to'liq qamrab olgan bo'lib, fanning mazkur bo'limi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tishda foydalanishni ko'zda tutadi.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari o'zga tilli guruhlarda o'zbek ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga "O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi" fanining "Sintaksis" bo'limi bo'yicha tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlarini o'tishda asosiy manba vazifasini o'taydi.

Tushunchalar	Tushunchalar izohi
Genetik tipologiya	
Qarindosh tillar	
Asos til (bobo til)	
Til oilasi	
Morfologik tipologiyasi	
Flektiv tillar	
Fleksiya	
Agglyutinativ tillar	
Amorf (ajratuvchi) tillar	
Polisintetik tillar (mujassamlashtiruvchi tillar)	

UO'K: 808.2-31
BBK: 74.03

Kadirova, X.

O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi. Sintaksis. Amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar. O'quv qo'llanma. / X.Kadirova – Toshkent: "Lesson Press" MCHU nashriyoti, 2023. - 192 b.

"O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi. Sintaksis" (amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar) nomli ushbu o'quv qo'llanma O'zga tili guruhlarda o'zbek tili ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Ushbu o'quv qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adbiyoti universitetida ishlab chiqilgan bo'lib, 60111600 - O'zga tili guruhlarda o'zbek tili ta'limi yo'nalishining "O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi" fani dasturi asosida yaratildi.

O'quv qo'llanmada "O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi" fanining "Sintaksis" bo'limi bo'yicha tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan topshiriqlar tizimi tavsifiya etiladi.

O'quv qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adbiyoti universiteti Kengashida muhokama etilib, 2022-yil 3-oktyabrda 6-sonli bayonnoma qarori nashrga tavsifiya etilgan.

Mas'ul muharrir:

Saodat MUHAMEDOVA – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

p.f.d. prof. **G.Asilova**

f.f.n. dots. **M.Abdurahmonova**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug'iga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

© **Kadirova. 2023 yil.**

ISBN: 978-9943-9545-5-7

© «Lesson Press» nashriyoti, 2023 yil.

KIRISH

"O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi" fanidan o'quv rejasiga muvofiq talabalarning mustaqil ishlashlarini tashkil etish, ularni ijodiy fikrlashga o'rgatish hamda izlanish olib borish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida amaliy mashg'ulotlarni o'tish rejalashtiriladi.

"O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi" fanidan tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlardata balalarning ma'ruza mashg'ulotida egallagan nazariy bilimlarini mustahkamlash va yanada chuqurlashtirish maqsadida o'tilgan mavzular bo'yicha mustaqil tarzda tahlillar, tajribalar olib borish masalasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Shu maqsadda amaliy mashg'ulotlarni o'qitishning eng ilg'or usullaridan foydalanib ilmiy-nazariy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan holda tashkil etish ko'zda tutiladi.

"O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi" fanidan o'tiladigan amaliy mashg'ulotlar avvalo, talabalarning o'qituvchi hamkorligi va nazoratida olib boradigan o'quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga qaratiladigan o'qitish shaklidir. Amaliy mashg'ulotda bajariladigan ishlarning o'qituvchi nazoratida amalga oshirilishi mavzuga doir ilmiy xulosalarning talabalar tomonidan chuqur o'zlashtirilishiga yordam beradi. Amaliy mashg'ulotda mavzu bo'yicha bajarilishi ko'zda tutilgan amaliy ishlar nazariy masalani mustaqil tahlil qilishga qaratiladi. Shu sababli har bir amaliy mashg'ulotda talaba izlanish olib borishi, misollarni qiyoslashi, tahlil qilishi, til qonuniyatlarini ishlab chiqish, xulosalar chiqarish va o'z fikrini to'liq bayon eta olishi lozim bo'ladi. O'quv qo'llanmada amaliy ishlar mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda belgilandi va quyidagi shakllarda tavsifiya etildi:

1. Jamoa bo'lib ishlashga qaratilgan amaliy ishlar.
2. Yakka tartibda ishlashga qaratilgan amaliy ishlar. Amaliy

..... 3

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

Xurshida KADIROVA

O'ZBEK VA RUS TILLARINING QIYOSIY TIPOLOGIYASI SINTAKSIS

Amaliy mashg'ulotlar uchun materillar

TOSHKENT – 2023